



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O'zbek tili, adabiyoti
VA FOLKLORI INSTITUTI



EGE ÜNİVERSİTESİ
1956
ANKARA
HACI BAYRAM VELİ
UNIVERSITY



O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI FANLAR AKADEMIYASI O'ZBEK TİLİ, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

TURKIY XALQLAR FOLKLORINING QIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI

*mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
anjuman materiallari*



Digital object
identifier



Google
Scholar



OpenAIRE

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI O'ZBEK TILI,
ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
EGEY DAVLAT UNIVERSITETI (TURKIYA)
ANQARA HOJI BAYRAM VALI UNIVERSITETI (TURKIYA)
YEVROSIYO ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI (KOREYA)
MILLIY ILMLAR AKADEMIYASI FOLKLOR INSTITUTI (OZARBAYJON)

TURKIY XALQLAR FOLKLORINING QIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI

ISSUES OF COMPARATIVE STUDY OF FOLKLORE OF TURKISH PEOPLES
ВОПРОСЫ СРАВНИТЕЛЬНОГО ИЗУЧЕНИЯ ФОЛЬКЛОРА ТЮРКСКИХ
НАРОДОВ

*Filologiya fanlari doktori, professor Jabbor Eshonqulov tavalludining 60 yilligiga
bag'ishlangan xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari*

*Materials of the international scientific and theoretical conference dedicated to
the 60th anniversary of the birth of Doctor of Philology, Professor Jabbor
Eshonkulov*

*Материалы международной научно-теоретической конференции,
посвященной 60-летию со дня рождения доктора филологических наук,
профессора Джаббора Эшонкулова*

2025-yil 5-may, O'zbekiston
May 5, 2025.
5 мая, 2025 г.

"TAFAKKUR" NASHRIYOTI
TOSHKENT – 2025

15. Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М.: Наука, 1969.
16. Сулайманова Ф. Зороастризм и философия Иония // Литературное наследство. 1989. № 2.
17. Эргаш Жуманбулбул оглы. – Ташкент: Фан, 1971.

“BAYTARNOMA” VA EPOS – MUSHTARAK MEROSIMIZ

*Abdumurod TILAVOV,
Filologiya fanlari nomzodi,
ToshDO‘TAU dotsenti*

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek xalq dostonlarida keluvchi ot tarifi bilan bog‘liq o‘rinlar hamda yozma adabiyotdagi xuddi shunga o‘xshash “Baytarnoma” nomli maxsus ot ta’rifiga bag‘ishlangan janr qiyoslanadi.

Аннотация: В статье сравниваются отрывки, связанные с описанием лошадей в узбекских народных эпосах и схожем жанре письменной литературы под названием «Байтартнома», посвященном описанию лошадей.

Annotation: The article compares passages related to the description of horses in Uzbek folk epics and a similar genre of written literature called “Baytarnoma”, dedicated to the description of horses.

Tayanch so‘z va iboralar: doston, tulpor, og‘zaki ijod, yozma adabiyot, Go‘ro‘g‘li turkum dostonlari.

Ключевые слова и выражения: эпос, тулпор, устная литература, письменная литература, эпосы серии Гёргюлу.

Key words and expressions: epic, tulpor, oral literature, written literature, epics of the Goroglu series.

Otning ajdodlarimiz yozma adabiyotida ham alohida obraz sifatida tasvirlanganiga guvoh bo‘lamiz. Chunonchi, turkiylar madaniyatining asosiy unsurlaridan birini “Baytarnoma” nomi bilan ataluvchi yozma asarlar tashkil etadi. Baytarnomalarda asosan ot, uning vasflari, hayotda tutgan o‘rni, ranglari, yurish shakllari, ot boqish, tarbiyalash, ot xastaliklari, ularni davolash yo‘llari, ot tanlash kabi mavzular yoritiladi.

Baytarnomalar dastlab arab va fors tillarida yozilib, keyinchalik bu asarlar turkiychaga tarjima qilingan va turkiycha original baytarnomalar ham yuzaga kelgan. Olib borilgan kuzatish va tadqiqotlar shuni ko‘rsatyaptiki, bu mavzudagi ilk asar IX asrda Ali Hizom tomonidan yozilgan. “Kitabul xayl va'l baytara” nomli bu asarning bir nusxasi Sulaymoniya kutubxonasining “Fotih” bo‘limida 3535-raqam bilan saqlanmoqda. Biz quyida ajdodlarimizga oid bunday qimmatli asarlarning ayrimlari haqida muxtasar bayon berish bilan cheklanamiz. Jumladan,

saljuqiyalar davrida ot tarbiyasiga oid asarlarni fors tilida ularning sayislaridan Muborak Zangi yozgan. Bu nodir asarning yagona nusxasi ayni paytda Bursa (Turkiya) shahridagi O‘rxon G‘oziy jomesi kutubxonasida saqlanmoqda. Muborak Zangi bu asarida o‘z zamonasidagi turklarning ot tarbiyalash uslubini bayon qilish bilan birga, o‘zidan oldingi yillardagi ot tarbiyalash uslubidan ham bahs yuritgan. Bizgacha yilqichilikka doir yana bir muhim asarning muxtasar shakli yetib kelgan. Bu asar xuttol turklaridan Bahdod xalifalari Mu’tasim va Mutadidning xizmatida bo‘lgan Yoqub ibn Hizom al Xuttaliy qalamiga mansubdir. Muborak Zangi mana shu asarning to‘liq matnini o‘qib chiqqan va ot tarbiyasida arab va turkman sayislarining tajribalarini tanqidiy o‘rganib, o‘z zamonasida bu sohadagi taraqqiyot va uning sirlarini go‘zal shaklda ifodalab bergen.

Baytarnomalarning keyingi yillarda tarjima qilib nashr etilganligi, bu borada maxsus ilmiy ishlar olib borilayotganligi ushbu asarlarning turkiylar madaniyati tarixidagi ahamiyatini ko‘rsatmoqda. [1;31] Baytarnomalardan ajdodlarimizning ot bilan bog‘liq mifik tasavvurlarini o‘rganib olamiz. Bu asarlarda otning yaratilishi haqidagi turli afsonalar ham uchraydiki, bu kabi ma’lumotlar xalq og‘zaki ijodidagi mifik ot obrazining ko‘p jihatlarini ochib berishda bizga yordam beradi.

Xalq dostonlarimizda Buroq ot obrazi ham o‘z badiiy ifodasini topgan. “Dalli” dostonida Hasanxon G‘irotga:

*Nazarkarda jonivorim,
Men seni sira qo ‘shmayman,
Yilqilarning hisobiga.
Sen behishtning burog‘isan. [2;74]*

Payg‘ambarimizni Me’roj kechasida Masjid-al Aqsodan samoga olib chiqqan maxluqqa Buroq deb nom berilgan. Buroq arabchada “chaqmoq”, “yaltiramoq” ma’nosidagi “barq” so‘zidan hosil bo‘lgan. Bu ulovning oq rangli, o‘ta sur’atlari va xachir bilan eshak o‘rtasidagi bir hayvon ekanligi rivoyat qilinadi. [3;92] Ba’zi manbalarda Buroqning qanotli ekanligi, bu qanotlari yordamida ko‘zi ko‘ra oladigan eng uzoq masofani ko‘z ochib-yumguncha bosib o‘tganligi aytildi. [4;60] Me’roj hodisasi bilan bog‘liq manbalarda dastlab Buroqning Hazrati payg‘ambarimizni minishga qo‘ymaganligi, Jabroil kelib bu zotning shu paytgacha ustiga mindirgan kishilarning eng fazilatlisi va eng buyugi ekanligini aytgach esa, tek turib badanidan terlar oqqanligi ham qayd etiladi. Jabroilning Rasuli Akram bilan birga Buroqqa minib-minmaganligi ham olimlar o‘rtasidagi ixtilofli masalalardandir.

Tabariyning mashhur “Tafsir”idagi bir rivoyatda Buroqni Hazrati Ibrohim payg‘ambar ham Ka’bani ziyyarat qilishga minib kelganligi, sabab bu ulov “Ibrohimning ulovi” (Dabbatul Ibrohim) deb ham yuritilishi aytilgan.

Qiyomat kunida Mahshar maydonida to‘planib turgan ummatlarining oldiga minib kelishlari uchun payg‘ambarlarga bir ulov berilishi, Solih payg‘ambar tuyasiga

minib kelarkan, Muhammad alayhissalom qizlari Fotima bilan Buroqqa minib kelishlari kabi xususlar ham ushbu mavzu bilan bog‘liq rivoyatlardandir.

Ma’lumki, majoz, majoziy ifoda tarzi tasavvuf ilmining o‘ziga xos xususiyatlaridandir. Inchinun, ko‘pchilik mutasavvuflar Me’roj kechasiagi Buroqning ilohiy ishq ramzi ekanligini aytishadi. Ularning fikricha, ilohiy ishqqa yo‘nalib, o‘zligidan kechgan qul aql bilan erishib bo‘lmaydigan ma’rifatullohga erisha oladi. Bir “Me’rojnama”da yozilishicha, Jabroil Buroqni olish uchun jannatga kelganida uni tushkun holatda ko‘radi va sababini so‘raydi. Buroq qachonlardir “Yo Muhammad!” degan bir nido eshitganini, o‘shandan beri bu ismga oshiq bo‘lganini, uni ko‘rishga mushtoqligini aytadi. Jabroil uni Muhammad alayhissalomga olib ketishga kelganini aytishi bilan quvonib ketadi va uchib Makkaga keladi. Biroq Hazrati payg‘ambarni minishga qo‘ymaydi. Jabroil bu holning sababini so‘raganida: “Jannatda ham vafo ko‘rguzib meni ulov ularoq minishni qabul qilsa, roziman”, deydi va Rasuli Akramdan munosib javobni olgach indamaydi. Imom G‘azzoliy ayni holatda Payg‘ambarimiz va Buroqning bevosita gaplashganliklarini yozadi. [4;60]

“Go‘ro‘g‘li” turkumiga kiruvchi “Avazning keltirilishi” (Ovyoz getiren) nomli turkman xalq dostonida Avaz tushida Buroq otni ko‘radi:

*Ey Xudoyo men bu kun uchdim-da tushdim yiroq,
Qaltirab turdim yerimdan, ko‘zimni ochsam bu firoq.
Bir sipohi “Ming!” – deya yonimga keltirdi Buroq.
Ey Xudoyo, men balolarning zo‘riga uchradim.*

Go‘ro‘g‘li esa Avazni tinchlantirib, bu tush xayrli tush ekanligini aytadi: “Hoy Avazjon, ... har kimki tushida Buroqni minsa yurtga xon bo‘ladi”. [5;127]

Darhaqiqat, dostonlardagi jangovar ot obrazi ko‘p jihatdan islom dini bilan bog‘lanadi. Bu “otning qobiliyatidagi yaxshi xislatlarni islom aqidalari, din peshvolari madadiga bog‘lashda ochiq ko‘rinadi”. [6;65] Quyida dostonlarda tez-tez tilga olinadigan “Shohimardon pir” – Hazrati Ali va oti haqidagi ibratli voqeani keltiramiz.

Kunlarning birida Hazrati Ali Kufa shahriga keladi. Asr namozini o‘qish uchun masjid oldida to‘xtaydi. Bu yerda bir notanish kimsa uni ochiq tabassum bilan kutib oladi. Hazrati Ali otini shu odamga topshirib ichkariga kirib ketadi. Namozni xotirjam o‘qib chiqarkan, haligi kishiga otga qarab turgani uchun besh dirham berishni xayolidan o‘tkazadi. Biroq tashqariga chiqqach na ot, na “qo‘riqchi” ko‘rinadi. Ittifoqo, biroz narida yugani yechib olingan oti u tomon kela boshlaydi. Hazrati Ali bir muddat o‘ylanib turganida. Bir kishi otniинг yuganini olib kelib, savdogardan besh dirhamga sotib olgani, ammo bunday oddiyigina yuganning Hazrati Alining otiga mansubligini bilib, bu yoqqa yo‘l olganini aytadi. Shunda Hazrati Ali odamlarni to‘plab shunday deydi:

– Hozirgina Alloh bir ibratli voqeani ko‘rsatdi. Men bir odamga otimga qarab turgani uchun besh dirham bermoqchi edim. Bu uning halol rizqi edi. Ammo u

Alloh berayotgan shu halol rizqni shoshib harom yo'l bilan topdi. Biroz sabr qilganida-ku, o'shani halollab olardi. Ko'rdingizmi, inson o'g'li naqadar shoshqaloq...Buyuk sarkarda Xolid ibn Validning sadoqatli oti haqidagi hikoya ham xarakterli. Rivoyat qilinishicha, Xolid ibn Valid vafot etganda, uning g'azotlarda doim minib yurgan oti qabr boshida ko'zidan yosh to'kadi. Uzoq muddat otni qabr boshidan olib ketisha olmaydi...Folklorshunos Fatxi Ko'zler "Ot sevgisi" maqolasida bunday yozadi: "Agar bir zумгина отning tilga kirishini faraz qilsak, u jonivorning mana bunday gapirishi muhaqqaqdir: "Ey jasur turk millati! Agar dunyo yuzida siz bo'lmaganingizda, men yer yuziga ot bo'lib kelganimga ming pushaymon yer edim. Meni hayvonlar olamidan chiqarib olib, menga shunchalar e'tibor berib yoningizdan joy berganiningizni hech qachon unutolmayman...". Haqiqatan ham turkiylarda ot sevgisi shunchalik chuqurlashib ketganki, ot deganda turk va turk deganda ot esga olinmasligi mumkin emas". [7;122]

Qahramonlik tipidagi dostonlarimizni o'qish jarayonida ajdodlarimizning otga bo'lgan ana shu sevgisi, bog'liqligi xalq og'zaki ijodida o'z ifodasini topganiga guvoh bo'lamiz. Dostondagi qahramonni ham otsiz tasavvur qilish mumkin emas. Chunonchi, "ot qahramonning safari va kurashlarida doimiy yo'ldoshi va yaqin do'stidir... U gapga tushunadi, zarur vaqtida, hatto tilga kirib gapiradi, qahramonga yo'l-yo'riq ko'rsatadi, yanglishgan paytda tanbeh beradi, dushmanga qarshi kurashda sohibini ehtiyyot qiladi, jang maydonida qahramonga qo'shilib dushmanga hujum etadi, tishlab, tepib uni yo'qotishda birga qatnashadi. Epik ot qahramon boshiga kulfat tushganda achinadi, yig'laydi, yarador egasini jang maydonidan xalos qiladi" [8;65], o'z jonini qiyonoqqa solib bo'lsa ham, egasining mushkulini osonlashtiradi.

Xulosa qilib aytgada, ajdodlarimiz qoldirgan "Baytarnoma" janriga mansub yozma yodgorliklar va qimmatbaho og'zaki ijod – epos o'rtasida ajib o'xshashliklar bor hamda ular bizning mushtarak merosimizdir.

Foydalaniлган адабиёти

1. "Китаби риёзати хайл" Нуриддин Рушту Бингул. 1944 йил Кония. "Улку" нашриёти.
2. Далли Достон. Айтувчи: Эргаш Жуманбулбул ўғли. – Тошкент, 1972. – Б. 74.
3. Носириддин Бурхониддин Рабгузий. Қиссаси Рабгузий. 1-жилд. – Тошкент, 1991.
4. Имом Ғаззолий. "Дақойик ул-ахбор" асарида. ("Ёшлик" журнали. – 1996. – №3.).
5. Гёр-оглы. Туркмен гаҳраманчылық эпосы. – М., 1983.
6. Зарифов Ҳоди. Жанговар от образининг қадимий асосларига доир // Пўлкан шоир. – Тошкент, 1976.

7. Фатҳи Х. Кўзлер. Халқ оғзаки ижодида миллият нусурлари. – Анқара, 1980.

8. Зарифов Ҳ. Ўзбек халқ достонларининг тарихий асослари бўйича текширишлар. Жанговар отнинг қадимий асосларига доир. Ўзбек халқ оғзаки ижоди бўйича тадқиқотлар. 4-китоб // Пўлкан шоир. – Тошкент, 1976.

SIRDARYO VILOYATI BAXSHICHILIK SAN'ATIDA MUROD SHOIR OTABOY O'G'LINING IJODIY MAHORATI

Oygul AXMEDOVA,

Yunus Rajabiy nomidagi

O'zbek milliy musiqa san'ati instituti professor v.b.

filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya: Sirdaryo viloyatida ham ko'plab taniqli baxshilar yashab ijod etgan, bugungi kunda ular ijodini tadqiq etish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada Sirdaryoda yashab ijod etgan Murod shoir Otaboy o'g'li ijodi manbalarga tayangan holda tahlilga tortiladi.

Kalit so'zlar: Murod shoir. "Zorliq va Mungliq", baxshilar mahorati, repertuar, dostonchilik an'analari, epik an'ana, doston, baxshi.

Abstract: Many famous bakhshis lived and worked in the Syrdarya region, and today the study of their work is one of the important issues. In this article, the work of Murod the poet Otaboy oglu, who lived and worked in Syrdarya, is analyzed based on sources.

Keywords: Murod the poet. "Zorlyq va Munglyq", bakhshi skills, repertoire, epic traditions, epic tradition, epic, bakhshi.

"Qadim-qadimdan do'mbira va chanqovuz sadolari yangrab kelgan, folklor bo'yicha boy meros va an'analarga ega bo'lgan bu sahovatli diyor bag'ridan Murod baxshi, Hamroqul baxshi, Gulmurod baxshi, Akram bulbul, Saidahmad va Saidmurod baxshi kabi ijodkorlar, Sirdaryoning faxru g'ururiga aylangan To'ra Sulaymon va Halima Xudoyberdieva singari atoqli shoirlar yetishib chiqqanini el-yurtimiz yaxshi biladi. Ularning xalqona donishmandlik bilan yo'g'rilgan baxshiyona ohanglari hozir ham munosib izdoshlar sozi va so'zida jaranglab turibdi" [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning III Xalqaro baxshichilik festivali ishtirokchilariga yo'llagan yuqoridagi tabrigi orqali, Sirdaryoda ham ko'plab taniqli baxshilar yashab o'tganini, bugungi kunda ular ijodini tadqiq etish muhimligini ko'rsatadi.

Murod shoir Otaboy o'g'li 1892-yilda Sirdaryo viloyatining Guliston tumanidagi Qo'ybotgan qishlog'ida kambag'al dehqon oilasida tug'ilgan, yili ilon,

| | |
|--|-----|
| Dilshod Rajabov (O‘zbekiston). Qo‘sishlarda poetik takrorlarning turlari va ularning ohangni hamda estetik-g‘oyaviy mazmunni kuchaytirishdagi vazifalari... | 130 |
| Sabirova Nasiba (O‘zbekiston). Xorazm folklori marosimlarining ilmiy-nazariy aspektlari | 135 |
| Aynur Ibrahimova (Ozarbayjon). Xorazm dostonchiligining o‘ziga xos xususiyatlari | 139 |
| San’atjon Sariyev (O‘zbekiston). Qo‘lyozma dostonlar va baxshichilik an’anasi | 146 |
| Ulug’bek Sattorov (O‘zbekiston). Folklorshunoslik fanini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish kompetensiyalarini takomillashtirish asoslari | 148 |
| Jamila Asqarova (O‘zbekiston). Qadimgi initsiatsiya marosimining badiiy talqini “Yoriltosh” ertagi misolida | 154 |
| Gavhar Eshchanova (O‘zbekiston). Tarix va epos munosabati masalasiga bir nazar..... | 160 |
| Жамила Досматова, Айгуль Абишева (Кыргызстан). Границы русских пословиц и поговорок: к проблеме жанровых разграничений в паремиологии | 166 |
| Хуррам Рузимбаев (O‘zbekiston). Образ Гирата в Хорезмском эпосе “Гороглы” | 170 |
| Abdumurod Tilarov (O‘zbekiston). “Baytarnoma” va epos – mushtarak merosimiz | 176 |
| Oygul Axmedova (O‘zbekiston). Sirdaryo viloyati baxshichilik san’atida Murod shoir Otaboy o‘g‘lining ijodiy mahorati | 180 |
| Farruh Bafoyev (O‘zbekiston). Hazrati Ali haqidagi o‘zbek xalq qissalarida tarixiy voqelik va badiiy talqin (“Xaybar qissasi” misolida) | 185 |
| Азамат Бекимбетов (O‘zbekiston). Қарақалпақ халық тарийхый әпсаналарында ҳаял патша образы..... | 189 |
| Dilafro‘z Qalandarova (O‘zbekiston). O‘zbek xalq og‘zaki ijodini xorijda o‘rganish masalalari | 200 |
| Venera Ataxanova (O‘zbekiston). “Kitobi dadam Qo‘rqt”dagi sarkushlik va tush motivi | 205 |
| Gulsanam Mashrapova (O‘zbekiston). Mehmondo‘stlik haqidagi o‘zbek, qirg‘iz, ozarbayjon xalq maqollari tipologiyasi..... | 211 |
| Davronbek Oripov (O‘zbekiston). Turkiy kitobiy eposlarda mubolag‘a san’ati: tablig‘, irg‘oq, g‘uluvv | 215 |
| Abdukamol Abdujalilov (O‘zbekiston). O‘zbek xalq sehrli ertaklarida tush motivi. Muharram Kamolova (O‘zbekiston). Hodи Zarifov va Ergash Jumanbulbul o‘g‘li ijodi | 220 |
| Muharram Kamolova. Hodи Zaripov va Ergash Jumanbulbul o‘g‘li ijodi | 226 |
| Mohinur Abduxakimova (O‘zbekiston) ₆₂₄ Hoshimjon Razzoqovning ijod qirralari..... | 231 |